



## NOYOB TARIXIY ASAR

**Rahimullah Majidy**

*Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası 2-bosqich magistranti*

**Anatatsiya:** *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li, ilmiy va ijodiy faoliyati, siyosiy maydondagi o'rni haqida gapirilgan. Undan tashqari memoriy va madaniy faoliyati, shaharsozlikka qo'shgan hissasi haqida ham so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Boburnoma, bog', devonlari, Amir Temur, Samarqand, Kobul, Hindiston, Poytaxt, taxt, ijod, ilmiy faoliyat*

**Abstract:** *This article discusses the life path, scientific and creative activities, and political role of Zahiriddin Muhammad Babur. In addition, it discusses his memory and cultural activities, and his contribution to urban planning.*

**Keywords:** *Baburnome, garden, palaces, Amir Temur, Samarkand, Kabul, India, Capital, throne, creativity, scientific activities.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается жизненный путь, научная и творческая деятельность, а также роль Захириддина Мухаммада Бабура на политической арене. Кроме того, в книге обсуждается его память и культурная деятельность, а также его вклад в городское планирование.*

**Ключевые слова:** *Бабур, сад, диваны, Амир Темур, Самарканд, Кабул, Индия, Столица, трон, творчество, научная деятельность.*



Zahiriddin Muhammad Bobur g'oyat murakkab hayot yo'lini bosib o'tdi, u yashagan davr dog'uli, alg'ov-dalg'ovli va shiddatlarga to'la edi. Bobur o'n ikki yoshida shohlik taxtini egallagan daqiqadan e'tiboran butun umri jangu jadallarda o'tdi. O'n ikki yoshli murg'ak o'spirin o'z shohligidan ilk kunidayoq yurti va elini himoya qilish uchun qo'lga qilich ushladi. Uning hayot va ijodi notekis so'qmoqlar va achchiq saboqlardan iborat bo'ldi, ayni shu voqea va hodisalarni u o'z asarlarida ifoda etdi. Boburning "Boburnoma" asari o'zbek nasrining shoh asarlaridan bo'lib, asar Boburni adib, shoir, tarixchi olim, donishmand adabiyotshunos sifatida namoyon etadi. Bobur aslida asarga "Voqeanoma" deb nom beradi, biroq keyingi asrlarda kitob "Boburnoma", ya'ni Bobur bitiklari nomi bilan mashhur bo'lib ketadi. "Boburnoma" Movarounnahr, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston tarixini, ijtimoiy-siyosiy hayotini, madaniyatini, adabiyoti va tabiatini o'rganishda muhim manbadir.



“Boburnoma” o‘zbek adabiyoti nasrining qomusiy asarlari sirasiga taalluqli, unda Bobur yashagan davr tarixiy shaxslari tasviri bayon etiladi. Har bir tarixiy shaxsga tegishli holat va odat, xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin nazardan sobit etilmaydi. Bobur biror tarixiy shaxs xususida so‘z yuritir ekan, albatta, xolisona yo‘l tutadi. Shaxsning kimligidan qat’iy nazar, unga xos jami xatti-harakat borligicha chiziladi va kitobxonda kuchli taassurot uyg‘otadi. Asarda shohlar, temuriyzodalar, amirlar, vazirlar, beklar, shoirlar, rassomlar, san’atkorlar va me’morlar haqida ajoyib ma’lumotlar beriladi.

“Boburnoma” Bobur iste’dodining turfa qirralarini ko‘z–ko‘z qiladi. Bobur shaxs, tabiat yoki hayvonot olami tasvirida jilokor uslub qo‘llab, tasvirning ta’sirini oshiradi. Samarqand shahri tasviridagi ayrim o‘rinlarga e’tibor bering: “Rub’i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur... viloyatini Movarounnahr derlar... Samarqandni Iskandar bino qilg‘ondur... Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ popshoh Samarqandni poytaxt qilg‘on emastur”(43). Kishilar tasvirida ham shu xil uslub saqlanadi, jumladan, Husayn Boyqaroning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori ushbu tarzda chiziladi: “Kiyik ko‘zluk, sher andom buyluk kishi edi. Shujo’ va mardona kishi edi. Temurbek naslidin hyech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay. Tab’i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi Husayniy edi”.

“Boburnoma”da hind zaminiga xos, tabiatiga mas turfa nabotot va hayvonot olami e’zoz hamda ehtirom ila tilga olinadi. Bobur Hindiston ta’rifida va talqinida jo‘shib satrlar bitadi: “Hindiston avvalgi iqlimdan va tog‘ va daryosi va jangan va sahrosi, mavozi’ va viloyati va hayvonot va nabototi, eli va tili va yomg‘uri va yeli barcha o‘zgacha voqe bo‘libtur”. Hindistonning hayvonot olami ham ayricha mehr bilan tasvirga jalb etiladi: “Hayvonotkim Hinduston maxsusidur, bir fildurkim, Kolpi viloyatining sarhadlarida bo‘lur. Andin yuqori sharq sari boqa borg‘on sari sahroyi fil ko‘prak bo‘lur... Yana qarq (karkidan)dur, ulug‘ jonivordur. Yana Hindustonning tog‘ domonlarida kichikroq kiyik bo‘lur”. Bobur ana shu tariqa Hindiston hayvonot olamining o‘ziga xosligi jihatidan tasniflab atroflicha sharhlab beradi.

“Boburnoma” kundalik yozib borilgan qayd va esdaliklardan iboratdek tuyulsa–da, aslida asar keyingi yillar xotirotlarini tiklash asosida qurilgan. Chunonchi Bobur Samarqand shahri haqida gapirib turib, uni Kobul shahri bilan taqqoslaydi: “Vali ikki meva Samarqandin mashhurdur: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand. Qishi mahkam sovuqtur, qori agarchi Kobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi havosi bor, agari Kobulcha yo‘qtur”(–B.44). “Boburnoma”da 1508–1519 yillar, 1520 yil, 1525 va 1529–1530 yillaridagi voqealar tasviri turli sabablarga ko‘ra tushib qolgan.





Basharti “Boburnoma” sinchkov nazardan o‘tkazilsa, asar bir qarashda tarixiy voqealar majmuasi bo‘lsa hamki, uning badiiy qimmatini beqiyosdir. Chunki unda goho tazkiraga hamohang xususiyatlar uchraydi, goho jug‘rofik ma’lumotlarga duch kelamiz. Bu xil hodisalar juda ko‘p, shu jihatlari bilan “Boburnoma” turli jabhalarni qamrab olgan qomusiy asarlarga o‘xshab ketadi. Zero “Boburnoma”da Boburning o‘z qalami mahsuli bo‘lmish she’riy parchalar asarga badiiy ziynat bo‘lib tushgan va uning g‘oyaviy mazmunini boyitgan. Bundan tashqari, “Boburnoma” sahifalaridan boshqa turli shoirlarning ijodidan namunalar ham o‘rin olgan.

“Boburnoma”da joy nomlari va ular to‘g‘risidagi xalq afsonalari ham mavjud, bu esa asarning qimmatini oshirgan. Chunonchi asarda Sayhunning Xo‘jand (gohi Xo‘jand so‘yi), Fanokat (Binokat – Banokat)ning Shohruxiya, Axsining Axsikat, Toshkentning Shosh – Choch, O‘ratepaning Ushrushna, Keshning Shahrisabz deyishlari shunday deb yozishlari haqidagi ma’lumotlar o‘ta maroqli. Yuqoridagi ma’lumotlar ana shu shaharlarning tarixini o‘rganishda qo‘l kelishi binobarida ularning o‘tmishdagi an‘anaviy nomlarini bilishda ham muhimlik kasb etadi. Shu tariqa joy nomlari, turli atamalarga e’tibor bilan qarash Boburga xos sinchkov fazilatlaridan biri edi. Masalan, Xuroson va Ajam nomlarining ta’rifiga diqqat qilsangiz, ularni izohsiz ham tushunib olasiz: “Hindustoniy (ya’ni, hindistonliklar) g‘ayri Hindustonni Xurosoniy der. Nechukkim arab g‘ayri Arabni Ajam der”. Bobur hatto elat, qavm, qabilalar xususida ham diqqatga molik fikrlar bayon etadi. Bu fikrlar o‘zbeklar, sortlar, turkiy elatlarga taalluqli bo‘lib, ular bilan bog‘liq ba’zi bir axborotlarni to‘ldirishda ahamiyati yuksakdir. Boburshunos olimlarning ta’kidicha, “Boburnoma”da Himalay tog‘i nomi uchramaydi, biroq bu tog‘ning hindcha mahalliy nomi sharhi keltiriladi: “Bu tog‘ni hind eli Sivolak parbat derlar, hind tili bilan “Sivo” – chorak, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni chorak va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay”.

“Boburnoma” go‘zal bir asar sifatida mana besh asrdan buyon kishilarni o‘ziga maftun etib kelmoqda. Uning tili ravon, o‘qilishi esa juda oson, tasviri sodda, ifodasi samimiy, usuli chiroyli, uslubi betakror.

Boburning “Boburnoma” asaridan bo‘lak yana aruz ilmiga bag‘ishlangan “Mufasssal”, Islom ruknlari va ahkomlariga doir “Mubayyin” nomli tasnifotlari ham borkim, ular madaniy hayotimiz tarixida muhim qirralarni aks ettiradi. Mustaqillik yillari Bobur hayoti va ijodi tahlil etilgan xorijiy olimlardan L.I.Sharmaning “Boburiylar saltanati”, U.Erskinning “Bobur Hindistonda” asarlari o‘zbek tiliga tarjima etilib, nashr yuzini ko‘rdi. O‘zbek olimlaridan T.Fayziyevning “Bobur va uning avlodlari”, N.Nuritdinovning “Boburiylar sulolasi”, A.Ibrohimovning “Boburiylar merosi” risolalari keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.





Boburning “Boburnoma” asari xususida amalga oshirilgan, ilmiy ishlarining tarixi ancha boy. Bu sohada o‘zbek ilmining darg‘alari V.Zohidov, H.Yoqubov, H.Hasanov, P.Shamsiyev, S.Azimjonova, N.Mallayev (1922–1996), A.Qayumov, S.Hasanov, G‘.Salomov, N.Otajonov, S.Jalolov va boshqalar yirik ishlarni amalga oshirdilar. Ana shu ajoyib an‘ana hozirgi kecha–kunduzda ham o‘z ustuvor maqomini va mavqeini to‘kis saqlab kelmoqda.

### Adabiyotlar:

- 1) Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Toshkent.: Sharq. 2014. – 744.2.
- 2) Nizomiddinov N.G‘. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. Toshkent.: Fan va texnologiya, 2012 yil. – 516. 3.
- 3) G‘ofurova Sh. “BOBURNOMA” ASARIDAGI TILGA OID ILMIY-BADIIY TOPILMALAR. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 <http://www.oriens.uz/> –B-815 4.
- 4) Shaymardanova, A. R. (2021). O ‘ZBEK TILINING INTRALINGVAL LAKUNALARI.“. *FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM*” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, 234.
- 5) Shaymardanova, A. (2020). THE ROLE AND POSITION OF LACUNAS OF CULTURAL LOCATION IN THE PROCESS OF COMMUNICATION (CAN THE WORD “YANGA” BE THOUGHT TO BE A LACUNA IN UZBEK LANGUAGE?). *Theoretical & Applied Science*, (12), 322-325.
- 6) Shaymardanova, A. (2021). Компьютерный Перевод Культурных Характеристик Проблема Изготовления. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
- 7) Makhamadievna, A. M., & Tulkunovna, R. N. (2021). Teaching foreign language by using effective methods. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 47-50.
- 8) Makhamadievna, A. M. (2022). Effective Teaching English Language to Non-Linguistic Students by Using Project Based-Learning. *The Peerian Journal*, 6, 48-51.
- 9) Malikova D.Q. Sharq mamlakatlarida “ustoz-shogird”lik an‘analarining shakllanishi va rivojlanishi. Science & Education ilmiy jurnal Volume 3 ISSUE 4. april2022 <https://elibrary.stipram.ac.id/Record/doaj-art-222c7da283ee44179ec1f9673eaa3b5f>

